

JOURNAL OF TRANSPORT



ISSUE 3, 2024 vol. 1
ISSN: 2181-2438



RESEARCH, INNOVATION, RESULTS



**TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI**
Tashkent state
transport university



JOURNAL OF TRANSPORT
RESEARCH, INNOVATION, RESULTS

ISSN 2181-2438
VOLUME 1, ISSUE 3
SEPTEMBER, 2024



jot.tstu.uz

TASHKENT STATE TRANSPORT UNIVERSITY

JOURNAL OF TRANSPORT

SCIENTIFIC-TECHNICAL AND SCIENTIFIC INNOVATION JOURNAL

VOLUME 1, ISSUE 3 SEPTEMBER, 2024

EDITOR-IN-CHIEF

SAID S. SHAUMAROV

Professor, Doctor of Sciences in Technics, Tashkent State Transport University

Deputy Chief Editor

Miraziz M. Talipov

Doctor of Philosophy in Technical Sciences, Tashkent State Transport University

Founder of the scientific and technical journal “Journal of Transport” – Tashkent State Transport University, 100167, Republic of Uzbekistan, Tashkent, Temiryo‘lchilar str., 1, office: 465, e-mail: publication@tstu.uz.

The “Journal of Transport” publishes the most significant results of scientific and applied research carried out in universities of transport profile, as well as other higher educational institutions, research institutes, and centers of the Republic of Uzbekistan and foreign countries.

The journal is published 4 times a year and contains publications in the following main areas:

- Business and Management;
 - Economics of Transport;
 - Organization of the Transportation Process and Transport Logistics;
 - Rolling Stock and Train Traction;
 - Infrastructure;
 - Research, Design, and Construction of Railways, Highways, and Airfields; Technology and Organization of Construction, Management Problems;
 - Water Supply, Sewerage, Construction Systems for Water Protection;
 - Technosphere Safety;
 - Power Supply, Electric Rolling Stock, Automation and Telemechanics, Radio Engineering and Communications, Electrical Engineering;
 - Materials Science and Technology of New Materials;
 - Technological Machines and Equipment;
 - Geodesy and Geoinformatics;
 - Car Service;
 - Information Technology and Information Security;
 - Air Traffic Control;
 - Aircraft Maintenance;
 - Traffic Organization;
 - Operation of Railways and Roads;
-

Tashkent State Transport University had the opportunity to publish the scientific-technical and scientific innovation publication “Journal of Transport” based on the Certificate No. 1150 of the Information and Mass Communications Agency under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan. Articles in the journal are published in Uzbek, Russian and English languages.

O. Matyaqubov	
<i>Problems and Solutions for Organizing Public Transport in Dedicated Lanes on Urban Streets</i>	10
O. Sattorqulov, S. Raimberdiev	
<i>The role of commercial banks as investors in the activity of small business subjects</i>	14
R. Abdullaeva, K. Turdibekov, A. Sotvoldiev	
<i>Asymmetric modes in transport</i>	19
S. Norkulov	
<i>Prospects for metropolitan development</i>	22
T. Muminov, D. Yuldashev	
<i>Estimating the capacity of traffic links by modeling passenger traffic</i>	26
J. Narimanov	
<i>Analysis of solar cells can be used in the design of solar-powered UAV</i>	30
D. Urunov, S. Ruzimov	
<i>The importance of calibration in modeling vehicle car-following behavior</i>	35
B. Bazarov, A. Ernazarov	
<i>Methodology for calculating atmospheric pollution by the motor transport complex in the Republic of Uzbekistan</i>	39
T. Nurmukhamedov, J. Gulyamov, A. Azimov	
<i>Automation of warehouse stock management</i>	45
J. Choriev, E. Fayzullaev	
<i>Evaluation of the impact of manual transmission vehicles on intersection capacity on urban arterial streets</i>	49
S. Norkulov	
<i>Analysis of economic indicators of Tashkent metropolitan</i>	56



The role of commercial banks as investors in the activity of small business subjects

O. Sattorqulov¹a, S. Raimberdieu¹b

¹Gulistan state university, Syrdarya, Uzbekistan

Abstract:

The article shows that the implementation of investment activities of commercial banks in the activities of small business entities is one of the most important financial resources for small business entities, as well as the mechanisms for improving the ways of increasing the role of institutional investors in the commercial banks of Uzbekistan.

Keywords:

foreign credit lines, economic instability, limited resources, innovative development, institutional structure, investment activity.

Kichik biznes subyektlari faoliyatida tijorat banklarining investor sifatidagi roli

Sattorqulov O.¹a, Raimberdiyev S.¹b

¹Guliston davlat universiteti, Sirdaryo, O'zbekiston

Annotatsiya:

Maqolada kichik biznes subyektlari faoliyatida tijorat banklarining investitsion faoliyatini amalga oshirishi kichik biznes subyektlari uchun juda muhim moliyaviy resurlardan ekanligi ko'rsatilgan, shuningdek, O'zbekiston tijorat banklarida institutsional investor sifatida rolini oshirish yo'llarini takomillashtirish mexanizmlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar:

xorijiy kredit liniyalari, iqtisodiy nobarqarorlik, resurslar cheklanganligi, innovatsion rivojlanish, institutsional struktura, investitsion faoliyat.

1. Kirish

Bugungi kunda yurtimizda tadbirkorlikning rivojiga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, oilalar daromadi va ularning farovonligi, yangi ish o'rinnarining tashkil etilishi aynan ushbu tadbirkorlik rivojiga bog'liq. Mamlakatimizda tadbirkorlikning jadal sur'atlar bilan rivojlanishida banklarning o'mni katta, chunki banklar tomonidan tadbirkorlik subyektlariga ajratilayotgan kreditlar orqali iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning moliyaviy-iqtisodiy-ijtimoiy jihatlari nazarda tutilgan. Ma'lumki, tarmoq kapital taqchilligi sharoitida ko'p mablag' talab etmaydigan xo'jalik faoliyati sifatida resurslar aylanmasining yuqori sur'atlarini ta'minlaydi, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, iqtisodiy nobarqarorlik va resurslar cheklanganligi sharoitida iste'mol bozorini shakllantirish va uni to'ldirish muammosini tez hamda tejamlı tarzda hal etadi.

O'zbekistonda biznes yuritish muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlikka keng erkinliklar berish, kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan davlat dasturlari asosida banklar tomonidan imtiyozli kreditlar berish orqali hududlarda aholining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi, uning turmush tarzini yaxshilash, ish bilan bandligini oshirish bilan bir vaqtida tijorat banklari

tomonidan ajratilgan moliyaviy resurslarni qaytarilishi va bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashga e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda xorijiy investitsiyalar alohida rol o'ynaydi. Xorijiy kredit liniyalari hisobiga investitsiyalar kiritilgan korxonalar innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish orqali milliy iqtisodiyotimiz samaradorligini oshirayotgan asosiy korxonalaridir. Bunday korxonalarda xorijiy kashfiyotlar va nou-xaular o'zlashtirilmoqda va qo'llanilmoqda, maxalliy sanoatga chet elning ilg'or texnologiyalari va asbob-uskunalari jalb qilinmoqda, innovatsion tadbirkorlikning ilg'or tajribasidan foydalilmoqda, loyihibiy boshqarish natijadorligi oshmoqda va umuman innovatsiya faoliyatini yaxshilanmoqda.

Ichki bozorning ehtiyojlari yuqori sifatlari mahsulotlar bilan yanada to'liqroq qoniqtirilmoqda, mamlakatimiz eksport salohiyati rivojlantirilmoqda va tegishli import o'nmini bosish ishlari amalga oshirilmoqda. Xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish hukumatimiz tomonidan milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy sharti, sanoat va infratuzilmani Xitoy va boshqa bir qator mamlakatlar tajribasi shuni qo'rsatmoqdaki, aynan innovatsiyaga yo'naltirilgan investitsiyalar istiqbolli manba sifatida va mamlakatning zamonaivi rivojlanish parametri sifatida birinchi o'ringa chiqmoqda.

^a <https://orcid.org/0009-0005-4835-7214>

^b <https://orcid.org/0000-0002-0513-9859>



Tadbirkorlik subyektlarining uzoq muddatli istiqbolli loyihibarini moliyalashtirish manbalari bo‘lib, bankning o‘z kredit resurslari, xalqaro moliya institutlarining, xususan xususiy sektorni rivojlantirish bo‘yicha Islom korporatsiyasining kredit liniyalari xizmat qiladi. Kelgusi yili bank tomonidan kreditlash jarayonida yangi bank mahsulotlarini va texnologiyalarini eng yaxshi mahalliy va xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ishlarni davom ettirish rejalashtirilmoqda. Bank investitsiya faoliyatini o‘zining istiqbolli yo‘nalishlardan biri deb hisoblaydi va kelgusida bankning investitsiya qo‘yilmalarini ko‘paytirish bo‘yicha bir qancha ishlarni amalgalashirishni, shuningdek investitsiya resurslarining sifatini ko‘tarishni rejalashtirilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tashqi bozor konyukturasi o‘zgarishlariga tez moslasha olishi, katta miqdorda mablag‘ talab etmasligi, iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirishga yo‘naltirilgan qarorlar ijrosining yuqori samarasini, yangi texnika-texnologiyalarni va yangiliklarni o‘zlashtirish darajasining yuqori sur’atlari ta’sirida mehnat unumtdorligini oshirib borish imkoniyatlarini yaratib beradi. Kichik biznes faoliyatini moliyalashtirish jarayonida bank kreditlarini ahamiyati beqiyosdir.

2. Metodlar

Tadqiqot jarayonida muammoni atloficha tahlil qilishda tizimli tahlil, mantiqiy abstraktsiya, tahlil natijalarini tizimlashtirishda induksiya va deduksiya kabi tadqiqot metodlaridan foydalilanigan.

3. Natija va muhokamalar

Bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan ushbu mavzu doirasida tadqiqotlar olib borilgan xususan, O.I.Lavrushin o‘z tadqiqotlari orqali zamonaviy kredit tizimini shakllantirishda bank tizimini isloh qilish va barqarorligini ta’minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchlilagini mustahkamlash muhim o‘rin tutishini ta‘kidlaydi[1]. E.P.Jarkovskaya izlanishlarida zamonaviy texnologiya asosida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarilishini tashkil etishga yo‘naltirilgan tijorat banklari investitsiyaviy faolligini kuchaytirish bilan bog‘liq jarayonlarga ustuvorlik beriladi[2]. E.F.Jukova tijorat banklari kredit portfelining diversifikatsiya darajasining pasayishini kredit riskining yuzaga keltiruvchi asosiy sabablardan biri sifatida ta‘kidlaydi[3]. P.S.Rouz tijorat banklari faoliyatidagi kredit riski darajasini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri zahira ajratmalari darajasi ko‘rsatkichiga e’tibor qaratadi[4]. A.N.Ivanov tijorat banklarning mijozlarini sezilarli qismini to‘lovga qobillik darajasining pastligi, asosan, ularning pul oqimining zaifligi bilan izohlaydi. Pul oqimining zaifligi mijozning mutloq likvidlitlik koeffitsienti orqali yaqqol namoyon bo‘ladi degan xulosaga keladi[5].

Jahoning rivojlangan mamlakatlar tajribasiga muvoffiq kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlatirishning asosiy omili hisoblanadi. Jahonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini oshirish, ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, kreditlash hajmini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) hisobotlariga ko‘ra “Jahondagi 65 million kichik biznes subyektlarining 40 foizi har yili 5,2 trillion AQSh dollarri miqdorida moliyalashtirilmagan ehtiyojiga egaligi, global darajada kichik va o‘rta biznesni kreditlash darajasidan 1,4 barobar ko‘pdir. Global moliyaviy tafovutning eng katta ulushi, Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasida jami 46 foizni tashkil etsa, Lotin Amerikasi va Karib havzasi mintaqasida 23 foizni, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida nisbatan pastroq 15 foizni tashkil etadi”[6].

Kichik biznes subyektlarini rivojlanirishda bank sektorining alohida o‘rnii bor, chunki aynan banklar kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyati samarali kechishi uchun zarur bo‘lgan moliyaviy xizmatlarni taklif etadi. Shu o‘rinda ta‘kidlab o‘tmochimizki, bank sektori kichik biznes subyektlariga samarali yordam berishi uchun bir qator muammolarni hal etish kerak. Ayni vaqtida kichik biznes subyektlariga, ayniqsa endi faoliyat yuritishni boshlagan tadbirkorlik subyektlariga banklardan uzoq muddatli kredit olish anchagina murakkab, chunki ular olinadigan qarz evaziga garov sifatida taqdim etish uchun yetarlicha bo‘lgan mol-mulkka ega emas. Bundan tashqari, kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish tijorat banklari uchun tashkili xarajatlari yuqori jarayon hisoblanadi.

Mamlakat milliy iqtisodiyotini barqaror va mutanosib rivojlanishi hamda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish yo‘lida va moliyaviy xizmatlar bozorida asosiy tayanch bo‘lgan tijorat banklarining ishtiroti yildan-yilga takomillashtirib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi davlat iqtisodiy-investitsion siyosatning asosiy maqsadlaridan biri, iqtisodiyotning bank-moliya sohalarida faoliikni jonlantirishga yo‘naltiruvchi moliyaviy barqarorlikka va resurs bazasining tobora oshib borishiga erishish hisoblanadi. Bu iqtisodiyotda investitsion jarayonlarining roli va ahamiyatini oshirish bilan bevosita bog‘liqidir. Xususan, milliy iqtisodiyotda tijorat banklarining institutsional investor sifatida rolini oshirish yo‘llarini takomillashtirish xamma raqobatbardoshlik darajasini oshirish masalasiga katta ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining bank sektorida institutsional investor sifatida rolini oshirish yo‘llarini takomillashtirish va zamon talabi darajasigacha rivojlanirish dolzarb muammoni bo‘lib qolmoqda.

Tijorat banklari tomonidan jamiyat ravnraqi uchun faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar qatorida jismoniy shaxslarga ham ko‘rsatilayotgan xizmatlar salmog‘i ham o‘smoqda. So‘nggi yillarda barcha sohalar kabi axborot-kommunikatsiya tizimining rivojlanishi banklar va bank mijozlariga masofadan turib xizmat ko‘rsatish va onlayn kabi xizmat turlarida yangidan-yangi innovatsiyalarning joriy etilishi bank va bank mijozlari uchun qulaylik tug‘dirmoqda[7].

Tijorat banklari faoliyatida innovatsiyalarni joriy etilishi bevosita bank boshqaruvi xodimlarining tadbirkorlik va tashabbuskorlik faoliyatining mahsuli sifatida yuzaga keladi, bu esa, raqobatbardoshlikka erishishdagi asosiy elementlardan biri hisoblanadi.

Respublika hukumati tomonidan innovatsion g‘oyalari, texnologiya va loyihalarni ishlab chiqish va joriy qilish sohasiga investitsiyalarni keng jalb qilish, ichki va tashqi bozorlarda jamoat va xususiy sektorlardan ilg‘or va ilmiy hajmdor texnologiyalarini faol tarqatish, bozor ishtirotchilarini o‘rtasida hamkorlikni kengaytirish, tarmoq korxonalarining jadal rivojlanishiga ko‘maklashadigan mintaqaviy va xalqaro aloqalarni rivojlanirish, ilmiy-tadqiqot



muassasalari, xususiy tadbirkorlik va investorlar o'rtasida kooperatsion aloqalarni rivojlantirish, yaqin qo'shnilar bilan ishlab chiqarish aloqalarini tiklash bo'yicha keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu sohada sifatli xizmat ko'rsatuvchi malakali kadrlarni tayyorlash va albatta investorlarni hamda iste'molchilarni jalb qilishda innovatsion marketing tadqiqotlari alohida ahamiyatga egadir.

Innovatsion rivojlanishga o'tish innovatsion salohiyatni jalb qilish va resurslarni optimallashtirishdan ko'ra ko'proq iqtisodiyotning institutsional strukturasini tizimli o'zgartirishni talab qiladi. Shu boisdan milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini to'xtatib turadigan tendensiyalar namoyon bo'lishi uning eng muhim yo'nalishlarini aniqlashda yangicha yondashuvlar ishlab chiqishni talab etadi. Bu ma'noda innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishini institutsionalizatsiyalash ularni bartaraf etishda muhim bir qadamga aylanadi.

Yuqorida bayon qilingan institutsional iqtisodiyot yo'nalishlari doirasida tavsiflangan bozor o'zgarishlari jarayonini o'rganish an'anaviy iqtisodiy tahlil doirasini kengaytiradi va institutsional tizim faoliyatini muammolarini tadqiq etishda umumiyyat nazariy asoslarni hisobga oladigan kompleksli yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqligini asoslab beradi. O'yalmizki, kompleksli institutsional yondashuvning umumiyyat nazariy metodologik asoslari sifatida faqat har bitta, alohida ko'rib chiqilayotgan yo'nalish uchun xos bo'lgan ma'lum bir jihatlarni ajratib ko'rsatish lozim. An'anaviy institutsional tahlilda raqobatlari muhit shakkantirishning muhim shartlaridan biri sifatida iqtisodiy subyektlarga huquqlar berish va cheklovlar shakli

sifatida institut (muassasa) tushunchasini ajratib ko'rsatamiz. Yangi institutsional iqtisodiyotga xos bo'lgan jihatlar rasmiy va norasmiy qoidalar, shartnoma tizimi tahlili, institutsional tuzilma va tashkilot shakllarini tadqiq etish hisoblanadi.

O'zbekistonda banklarga institutsional sarmoyadorlarning, ya'ni o'z ish faoliyatining xususiyatiga ko'ra doimiy va katta miqdordagi pul mablag'lariga ega bo'lgan hamda ularni qimmatli qog'ozlar portfeliga qo'yilma qilishga ruxsat berilgan.

Banklar institutsional sarmoyadorlarining aksiyalarini sotib olib, pul mablag'larini jamg'arish uchun qo'shimcha imkoniyaga ega bo'ladi, shuningdek, mijozlarning qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish bo'yicha o'z operatsiyalarini kengaytiradi. Banklar xususiyashtirilayotgan va qayta tashkil etilayotgan korxonalarining qimmatli qog'ozlarini katta xajmda investitsiya qilishga qodir bo'lgan yirik institutsional investorlari bo'lib hisoblanadi[8].

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda bank tizimi rivojiga qaratilgan tub o'zgarishlar o'zining kutilgan samarasini bermoqda. Bugungi kunda banklar tadbirkorlar bilan nafaqat mijoz, balki yaqin hamkor, hammaslak sifatida mustahkam aloqa o'rnatgan. O'z biznesini yo'lga qo'yish istagida bo'lgan ishbilarmonlarga banklar katta ko'mak bermoqda. Bir so'z bilan aytganda, aholi ishonchini qozonadigan, keng qamrovli moliyaviy xizmatlarni ko'rsata oladigan bank tizimi shakllandi. Bu natijalar bank xizmatlari va mahsulotlari turlari tobora kengayib borayotganida, ishbilarmonlik muhiti tobora yaxshilanib, banklar tomonidan ajratilayotgan kreditlar hajmi o'sayotganida aks etmoqda (1-jadval).

1-jadval

Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ajratilgan kreditlar (mlrd. so'mda)[9]


Davr	Ajratilgan kreditlar		shundan:					
			yuridik shaxslarga		yakka tartibdag'i tadbirkorlarga		aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun	
	soni	summasi	soni	summasi	soni	summa	soni	summasi
2023 yil	573 252	73 009,4	78 620	57 438,1	24 553	6 076,2	470 079	9 495,2
Yanvar	9 168	4 120,7	6 126	3 847,2	1 140	235,9	1 902	37,6
Fevral	28 971	5 154,5	8 932	4 449,9	592	291,3	19 447	413,4
Mart	59 811	7 354,3	6 508	5 753,1	2 337	524,9	50 966	1 076,4
Aprel	61 500	5 104,0	6 033	3 544,1	2 311	504,3	53 156	1 055,6
May	81 004	7 321,0	5 666	5 267,9	2 545	604,6	72 793	1 448,5
Iyun	54 695	6 489,2	4 521	5 004,2	1 585	528,0	48 589	957,0
Iyul	48 060	5 980,9	5 304	4 682,4	1 961	497,4	40 795	801,1



Avgust	48 837	6 201,6	6 525	4 988,4	2 039	424,2	40 273	789,1
Sentyabr	40 938	7 310,9	4 778	5 804,3	2 119	817,6	34 041	689,0
Oktyabr	52 383	6 651,2	7 732	5 319,2	2 113	463,1	42 538	868,9
Noyabr	45 977	5 483,1	7 551	4 206,7	2 503	552,6	35 923	723,7
Dekabr	41 908	5 838,1	8 944	4 570,6	3 308	632,4	29 656	635,1

Yuqorida jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki o'tgan 2023-yilda tijorat banklari tomonidan aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun

umumiyligida 9 495,2 mldr.so'm miqdordagi 470 079 ta kredit ajratilgan.



1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlariga hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun 2023-yilda ajratilgan kreditlar (tarmoqlar bo'yicha, mldr.so'mda)[9].

* Markaziy bank statistik byulleteni ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

1.-rasmga ko'ra tijorat banklari tomonidan 2023-yilda ajratilgan kreditlarning eng katta qismi 19 423,4 mldr.so'm yoki 26,6 foizi sanoatga to'g'ri keladi. Undan keyingi o'rirlarda 25,9 foiz bilan savdo va umumiyligida ovqatlanish uchun ajratilga va 8,9 foiz bilan aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ajratilgan kreditlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Hozirda amaldagi qonunchilik tijorat banklarining rivojlanishiga katta imkoniyatlar yaratadi. Biroq, ushu imkoniyatlar bank boshqaruv tizimi tomonidan to'liq ishga solinmay qolmoqda. Tijorat banklarida institutsional investor sifatida rolini oshirish yo'llarini shakllantirishning institutsional mexanizmlarini mustaxkamlanishi lozim. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar hajmi oxirgi 5 yilda mutazam o'sib kelmoqda, bunga asosiy sabab esa xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan qulay sharoit va investitsion muhitdir.

Kichik biznes subyektlarini kreditlashga e'tibor qaratayotgan banklar ijobji kredit tarixiga ega korxonalarini tanlashadi. Shunday bo'lsa ham banklar kreditlash jarayonida riskka qo'l urishadi, chunki korxonaning haqiqiy

moliyaviy holatini kuzatish har doim ham mumkin emas. Bu, asosan, ko'plab korxonalar biznesining ancha yuqori ulushi (taxminan 30-50%) xufyonada iqtisodiyot sektorida qolayotganligi bilan bog'liq. Aynan shu qismimi bank hech qanday tarzda nazorat qila olmaydi, buning natijasida muammolar paydo bo'ladi. Kichik biznesni kreditlashda yana bir dolzarb muammo - bu kichik biznes uchun tijorat ko'chmas mulki ko'rinishidagi yuqori likvidli garov ta'minotining yo'qligi, chunki banklar mijozlarga berilgan kreditlar, ayniqsa, ular uchun yetarlicha ta'minlanmagani hollarda, kredit summasining yuz foizi miqdorida zaxiralar yaratishga majbur. Bunday vaziyatda bank tomonidan beriladigan kreditlar bankning moliyaviy xavfsizligiga bevosita ta'sir qiladi. Tijorat banklari amaliyotida kichik biznes subyektlarini kreditlash sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

- banklarning kredit portfelida mavjud kreditlarga nisbatan stresstest amaliyotini qo'llash imkoniyatlarini oshirish;

- kreditlarni tasniflash kesimida batafsil tahlil qilib,



kredit portfeli sifatini saqlab qolish bo'yicha ta'sirchan, mukammal mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash;

- tijorat banklari kredit portfellari mukammal nazoratdan o'tkazilib, qiyin ahvolga tushib qolgan har bir mijozning moliyaviy imkoniyatlarini tiklash bo'yicha aniq choralarini ishlab chiqish hamda uning moliyaviy holatini o'rganish asosida mukammal baho berish zarurligi shular jumlasidandir.

Tijorat banklari kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish jarayonida kredit operatsiyalarini amalga oshirishga doir quyidagi muammolar mavjud va ularga qarshi kurashish tizimini yaratish orqali moliyaviy xavfsizligini ta'minlash mumkin[10]:

1. Hozirda tijorat banklari kreditlash vaqtida kredit ta'minoti sifatida qabul qilinadigan garov mulkini mavjud qonunchilikka asosan kredit muddatiga teng muddatga sug'urta qilinishi lozim. Banklar kredit ajratish jarayonida mijozlarning kredit ta'minoti sifatida taqdim qilgan garov mulkini sug'urtalashda mijozlar tomonidan sug'urta korxonalariga to'lanadigan summani kamaytirish orqali aholi va tadbirkorlik subyektlari mablag'larni o'zlarida qoldirish mumkin. Buning natijasida bank mijozlarining qo'shimcha mablag'larga bo'lgan ehtiyojlari kamayadi va bu to'g'ridan - to'g'ri kredit talabini kamayishiga imkoniyat yaratadi.

2. Respublikamiz tijorat banklari aholi va tadbirkorlik subyektlariga qo'llab quvvatlab, ajratayotgan kreditlar xususan, imtiyozli kreditlari hajmi juda katta sur'atlarda ortib borishiga qaramasdan, ushbu jarayonda faol qatnashayotgan tijorat banklarini hukumat tomonidan imtiyozlar berish mexanizmi joriy qilinmagan.

3. Muammoli kreditlarni iloji boricha kamaytirish uchun avvalo kreditlarni skoring qilishni mamlakatimiz barcha banklarida (hozirda ba'zi banklar foydalanadi) joriy qilish, bunda faqatgina mijoz faktorini xisobga olmasdan inson omolini qo'shishimiz zarur. Bundan tashqari hozirda "garov reestri"ga faqatgina garovlarni registratsiya qilmasdan kafilliklarni ham qo'shish lozim.

Kichik biznes subyektlarini kreditlash jarayonida tijorat banklari o'z moliyaviy xavfsizligini ta'minlash jarayonida kreditga layoqatlılik holatini o'rganishi zarur.

4. Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun bank tizimining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash nafaqat ichki o'zini o'zi tartibga soluvchi mexanizmlar, balki bank nazoratining ilg'or tizimi orqali amalga oshirilishi jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lum. Ta'kidlab o'tish kerakki, bozor iqtisodiyotida bank nazorati rejali iqtisodiyotga xos nazorat va taftish tizimidan tubdan farq qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadi, milliy iqtisodiyotda tijorat banklarining institutsional investor sifatida rolini oshirish yo'llarini takomillashtirishda kichik biznes faoliyatini tashkil qilishning institutsional asosini takomillashtirish hamda rivojlantirishning xorij tajribasi asosida integratsiyalashgan — innovatsion hamkorlik imkoniyatlaridan samarali foydalanish, yirik ishlab chiqarish korxonalari va kichik biznes muhitiga ta'sir etuvchi — global va lokal hamda bevosita va bilvosita omillar ta'siri doirasida integratsiyalashgan o'zaro iqtisodiy aloqalar

mexanizmini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun, O'zbekiston tijorat banklarida institutsional investor sifatida rolini oshirish yo'llarini takomillashtirish mexanizmlarini institutsional mustahkamlash uchun quyidagilar taklif qilinadi :

1. Tijorat banklari boshqaruva organlari samaradorligini baholash tizimini ishlab chiqish va maxsus baholov komissiyasi ishini tashkil qilish.

2. Tijorat banki boshqaruva organlari samaradorligini baholash bo'yicha baholov komissiyasi tarkibini faqat kompaniyada ishlamaydigan autsayer va minoritar aksiyadorlardan tayinlash.

3. Milliy iqtisodiyotda tijorat banklarining institutsional investor sifatida rolini oshirish va mexanizmini yaratish orqali bank biznes rejasining ijro intizomini ta'minlash va bank kengashida maxsus qo'mita tashkil qilish.

Foydalangan adabiyotlar / References

[1] Лаврушин О.И. Банковское дело: современная система кредитования: Финансовая академия при правительстве РФ. – 4-е изд., стереотип. – М.: КНОРУС, 2008. – 264 с.

[2] Жарковская Е.П. Банковское дело. – М.: «Омега-Л», 2008. – 476 с.

[3] Жукова Е.Ф. Банки и небанковские кредитные организации и их операции: учебник. – М. : Вузовский учебник, 2013. – 528 с

[4] Роуз П.С. Банковский менеджмент. – М.: «Дело-ЛТД», 1995. – С. 323.

[5] Иванов А.Н. Банковские услуги: зарубежный и российский опыт. Монография.– М.: Финансы и статистика, 2014. – 176 с.

[6] Jahon banki hisoboti (<https://www.worldbank.org/en/topic/smefinance>) ma'lumotlari asosida).

[7] Safarov G. A., Raimberdiyev S. S. O. Improving The Financial Security System Of Commercial Banks //The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research. – 2021. – Т. 3. – №. 02. – С. 51-56.

[8] Mardonova A.T. Pul va banklar. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2021 yil, 216 bet.

[9] <https://cbu.uz/oz/> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking rasmiy web sahifasi.

[10] Шершнева, Е.Г. Диагностика финансового состояния коммерческого банка: учебно-методическое пособие / Е.Г. Шершнева.— Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2017.— 112 с

Mualliflar to'g'risida ma'lumot/ Information about the authors

Sattorkulov Obidkul Tudikulovich	I.f.n, dotsent, Guliston davlat universiteti https://orcid.org/0009-0005-4835-7214
Raimberdiev Samandar Sherzod o'g'li	Guliston davlat universiteti magistri https://orcid.org/0000-0002-0513-9859 Tel.: (+99891)-5069012 E-mail: samandarsherzodovich@gmail.com

